



Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik
markazi

ADABIYOT DARSLARINI 4K MODELI ASOSIDA TASHKIL QILISH

D.Xalmuratova, Nukus shahar 38-sonli umumta'lim mакtabining oliy
toifali ona tili va adabiyoti o'qituvchisi

Adabiyot fani -

- Yozuvchilar hayoti va ularning asarlari haqidagi tayyor ma'lumotlarni yod olishga emas, balki har qanday matn (nasriy, she'riy) tahlili vositasida o'quvchilarni tanqidiy fikrlashga, turfa olamlar va madaniyatlar eshigini ochishga xizmat qiladigan fan bo'lishi lozim.

4 K MODELI NIMA?

Kollaboratsiya: O'quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini o'rGANISHGA ko'maklashadi.

Kommunikativlik: O'quvchilar o'z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhabatdoshni tinglashga va tushunishga, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o'rganadi.

4K modeli


Kreativ fikrlash: O'quvchilar o'z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo'llashni o'rganadi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Kritik (tanqidiy) fikrlash: o'quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o'z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. O'quvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazaridan yondashishni o'rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o'z nuqtayi nazarini shakllantiradi

O'quvchilarni adabiyotga qiziqtirish, badiiy asarni turli xil rakurslarda tusunishiga rag'bat berish, ularda rang-barang fikrlarni shakllantirish hamda tahlilda o'rganuvchi faolligini ta'minlashda badiiy asar matni bilan ishlashning interfaol usullari – matn bilan bosqichma-bosqich ishlash muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy matnni muayyan bosqichlarda tushunishga qaratilgan bu jarayon o'quvchida mavjud bilimni faollashtirish orqali yangi bilim, tushuncha va fikrlarni samarali o'zlashtirishda ham ahamiyatlidir

O'quvchi matn bilan ishlashda uch turdagি bilimlarni bilishi zarur


Maxsus bilimlar:
o'qilayotgan matn
mavzusiga oid bilimlar



Umumiy bilimlar, ya'ni
o'quvchining dunyo, ijtimoiy
munosabatlar, sabab va oqibatlar
haqidagi tasavvurlari

Yordamchi bilimlar: matn
tuzilishi, sintaksisi va uslubi
haqidagi bilimlar

O'QISHNING "TEPADAN PASTGA" MODELI



"Tepadan pastga" modeli- matn bilan ishlashni "psixologik topishmoq o'yini" sifatida tushunish mumkin, ya'ni mutolaa jarayonida o'quvchi o'zida mavjud bilimlarni ishga solib, matndan anglashiladigan ma'noni oldindan bashorat qiladi (gipotezalar-taxminlar yaratadi)

ADABIYOT DARSLARIDA BADIY ASAR MATNI BILAN ISHLASH

1

Bahs va munozaralarni keltirib chiqarishi lozim –savol va topshiriqlar shunday qo'yilishi lozimki, ularning yagona to'g'ri javobi yoki yechimi bo'lmasin.

2

Boshqa fanlar bo'yicha olingan bilimlarga suyanishi hamda ularni boyitishga xizmat qilishi lozim –ya'ni fanlararo integratsiyaga katta e'tibor beriladi.

3

Turli nutq ko'nikmalarini (o'qish, eshitish, yozish, gapirish) qamrab olishi lozim.

4

Yuqori darajadagi kognitiv(tahlil qilish, baho berish, yaratish) ko'nikmalarni ruvojlantirishga xizmat qilishi lozim

5

O'quvchilarga beriladigan savollar va topshiriqlar faqat ma'lumotni qaytarishni talab qilmasligi, balki matnni tahlil qilib, uning asosida yangi narsa yaratish, matndagi voqealari, hodisalar obrazlarga baho berishni ham qamrab olishi talab qilinadi.

ADABIYOT DARSLARIDA BADIY ASAR MATNI BILAN ISHLASH

Bir hodisaga turli obrazlar turlichayondashib, fikryuritadi. Ana shu holatlar o'quvchitomonidan ham har xil baholanadi.

Shunday ekan, badiy asar matni bilan ishslash uch bosqichda tashkil qilinishi lozim:

o'qishdan oldingi topshiriqlar

o'qish davomidagi topshiriqlar

o'qishdan keyingi topshiriqlar

BADIIY MATNNI O'QISH NATIJASIDA CHIQARILADIGAN XULOSALAR

O'quvchi

O'zini o'rab turgan voqelikdan farq qiladigan voqelikka sho'ng'ish zavqini his qiladi



O'zini muallif va asar qahramonlari bilan solishtiradi, o'xshash va farqli jihatlarini qidiradi

O'zini ularga yaqinlashtiradi yoki uzoqlashtiradi

Ularga nisbatan ijobiy yoki salbiy tuyg'ularni his qiladi



Asar muallifining dunyoqarashini, qadriyatlarini tushunadi

Uning mavjud voqelikka munosabatini bilib oladi

Yozuvchining munosabati sabablarini tushunishga harakat qiladi

4K modeli asosida loyihalash

Shaxs o'zining bilim va salohiyatini rivojlantirish, jamiyatda o'z o'rnni topish, maqsadiga erishish yo'lida matnni **tushunish**, matndagi ma'lumotlardan **foydalanish**, ular ustida **mulohaza yuritish**, hamda ularga **munosabat bildirish** qobiliyati demakdir. Yangi adabiyot darsliklarida asosiy maqsad savol va topshiriqlar, izohlar yordamida o'quvchida badiiy matnni tahlil qila olish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

8-sinf adabiyot darsligidagi Said Ahmadning "Qochoq" asaridan berilgan parchani 4K modeli asosida tashkil qilamiz.

Said Ahmadning “Ufq” romanidan olingan “Qochoq” nomli parchasini o’rganish


O’qishdan oldingi topshiriqlar:

Umumiyl sinf uchun savollar beriladi:

Asar sarlavhasiga e’tibor bering. Sizningcha, asar nima uchun “Qochoq”* deb nomlangan? Unda nima haqida hikoya qilinadi deb o’ylaysiz?

Shundan keyin o’quvchilar kuz faslining oy nomlarini aytib 3 guruuhga bo’linadi (Masalan:sentyabr, oktyabr, noyabr). Har bir guruuh uchun alohida topshiriq beriladi. Aytilgan javoblar dalillar bilan isbotlanishi lozimligi tushuntiriladi.

- Osmon bilan yer tutashgnan chiziq *ufq* deyiladi.
- Quyosh botadigan yer *ufq* deyiladi.



["Ufq" romani booktreiler.mp4](#)




O'qish davomidagi topshiriqlar

1-guruh uchun matn va savol

Baxtiyor odam hammani o'ziga o'xshatadi. Ikromjon hozir shunday kayfiyatda edi. Yor-birodarlar oldida yuzi yorug' bo'ldi. Vatan uchun qilgan xizmatlari oliy mukofot bilan taqdirlandi. U bu mukofotni o'z qishlog'ida, birga mehnat qilgan, birga ter to'kkani jo'rалари oldida ko'kragiga taqdi. Hozir uning ko'ziga boshqalar ham xuddi shunday baxtiyor, shunday shod tuyulardi.


Nima uchun Ikromjon mukofotlandi? Vatan uchun qilgan xizmatlari oliy mukofot bilan taqdirlanganini qanday izohlaysiz?



2-guruh uchun matn va savol

Klubdan chiqqan kishilar to'da-to'da bo'lib simyog'och tagida gaplashib turishibdi. Xotin-xalaj allaqachon tarqab ketgan. Tog'a harbiy komissarlikdan kelgan leytenant bilan pachag'i chiqqan qora "Emka" mashinasи oldida nimanidir shivir-shivir gaplashib turibdi.

Odamlar nima haqida shivirlashib turgan bo'lishi mumkin? Bu gaplarning Ikromjonga qanday aloqasi bor deb o'ylaysiz?



УФК

САИД АҲМАД

3-guruh uchun matn va savol

Ikromjon uning yoqasidan bo‘g‘ib oldi. Birpasda ularning atrofini odam o‘radi. Bu mojaro ustiga yetib kelgan Tog‘a yigitning tirsagidan tortib Ikromjonning qo‘lidan bo‘shatdi-da, uni koyidi.

Ikromjon javdirab Tog‘aga qaradi:

-Rostmi, Rayim... bu qanaqa gap?

Tog‘a unga juda ham bosiq javob qildi:

-Rost gap, do‘stim, rost gap.

Bu *rost gap* nima haqida edi? Tog‘a nima uchun do‘stiga buni ayta olmadи?

“MOSLASHTIR” METODI LUG’AT USTIDA ISHLASH. (HAR BIR GURUH UCHUN ALOHIDA BERILADI)

	So’zlar	Izohlari
1	sandal	Ma’lum bir joyni isitish uchun mo’ljallangan, ustiga ko’rpa yopilgan stol
2	guzar	Qishloq yoki mahallaning chorrahasida joylashgan obod, gavjum joy
3	chodir	Matodan qurilgan bostirma
4	kapa	Vaqtincha yashash uchun daraxt shoxlaridan qurilgan xona, yozlik uy
5	g’aram	Beda, pichan to’plangan uyum
6	fufayka	Issiq ko’ylak
7	pol	Ekin maydonlarining marza bilan ko’tarilgan har bir qismi
8	gruzovoy	Yuk mashinasi
9	bordon	Katta xurjun

“MOSLASHTIR” METODI LUG’AT USTIDA ISHLASH. (HAR BIR GURUH UCHUN ALOHIDA BERILADI)

	So’zlar	Izohlari
1	sandal	Matodan qurilgan bostirma
2	guzar	Ekin maydonlarining marza bilan ko’tarilgan har bir qismi
3	chodir	Ma’lum bir joyni isitish uchun mo’ljallangan, ustiga ko’rpa yopilgan stol
4	kapa	Beda, pichan to’plangan uyum
5	g’aram	Vaqtincha yashash uchun daraxt shoxlaridan qurilgan xona, yozlik uy
6	fufayka	Katta xurjun
7	pol	Qishloq yoki mahallaning chorrahasida joylashgan obod, gavjum joy
8	gruzovoy	Ma’lum bir joyni isitish uchun mo’ljallangan, ustiga ko’rpa yopilgan stol
9	bordon	Issiq ko’ylak

“SINDIKAT” metodi

Asar mazmunini to’liq anglash uchun “Sindikat” (yunoncha “birgalikda harakat qilish”, “maslakdoshlik”) metodi o’quvchilarda mavzu (masala, muammo)ni ijodiy o’rganish, nazariy bilimlarni umumlashtirish, tizimlash asosida fikrni qisqa va aniq bayon qilish qobiliyatini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Har bir guruh yagona topshiriqni uch xil variantda hal etishi lozim. Said Ahmadning “Qochoq” nomli parcha mohiyatini ochib berish uchun;

1-guruh asarda ishlatilgan raqamlarni;

2-guruh asarda ishlatilgan iboralarni;

3-guruh esa asarda ishlatilgan va asar uchun mos keladigan maqollarni yozib berishi kerak.

Guruqlar topshiriqlarni bajarib bo’lishgach, ular tomonidan taqdim etilgan yechimlar jamoa tomonidan muhokama qilinadi.

1-GURUH BAJARGAN ISHLAR (NAMUNA)

Katta Farg'ona kanali. Uzunligi: 270 kilometr

Kanal 45 kunda qazib bitkazilgan.

Kanal qazishda:

160 ming kishi qatnashgan.

Kanal trassasida:

17.8 million metr kub tuproq chiqarilgan.

1.7 million metr kub tuproq mexanizmlar yordamida,

16.1 million metr kub tuproq mehnatkash xalq qo'li
yordamida qazilgan.

To'qqiz oy

Bitta-yu bitta bolasi

Ikki kun

Millionlarcha kilometr

Ikki yuz metrcha

Bir hafta

O'n besh qadamlar

To'rt oy

2-GURUH BAJARGAN ISHLAR (NAMUNA)

- | | |
|--------------------------|-------------------------------|
| 1. Po'st tashlamoq | 1. Nima qilishini bilmaslik |
| 2. Bosh ko'tarmoq | 2. Mag'rur |
| 3. Qum-qum oqarmoq | 3. Rangi oqarmoq |
| 4. Odam qadami yetmagan | 4. Hech kim bormagan |
| 5. Yurak-bag'ri ezilmoq | 5. Qayg'urmoq |
| 6. Yuragi dov bermaslik | 6. Qo'rqish |
| 7. Yuragidagi og'ir dard | 7. Xavotirli, qayg'uli tuyg'u |

3-GURUH BAJARGAN ISHLAR (NAMUNA)

Asarda keltirilgan maqollar:


1. Po'k ildizdan o'tin chiqmas, bu o'tindan olov chiqmas.
2. Egilgan boshni qilich kesmaydi.
3. Osh avliyo, non payg'ambar.

Asarga mos keladigan maqollar:

1. Ona bilan bola, gul bilan lola.
2. Qilmish-qidirmish.
3. Onaning ko'ngli bolada, bolaning ko'ngli dalada.

VENN DIAGRAMMASI

- Topshiriq. Umumlashtiruvchi sababni toping.
 - (Har bir o'quvchi alohida ishlashi lozim)



ASARNI O'QIB TUGATGANDAN KEYIN...

Mutolaadan so'ng, sinf o'quvchilaridan iborat 3 ta guruhga quyidagicha topshiriq berilishi mumkin. Har bir guruhga alohida mavzu beriladi va shu mavzuni yoritishlari aytiladi.

1. Jannat xolaning Tursunboyga ayta olmagan so'zlari.
2. Ikromjonning Tursunboyga ayta olmagan so'zlari.
3. Tursunboyning ota-onasiga ayta olmagan so'zlari.

Yozish uchun vaqt belgilanadi va guruhdan bir kishi taqdimot qiladi. (Namuna)

“AYTILMAGAN SO‘ZLAR” METODI (NAMUNA)



Bolajonim, yolg’izim, ko’zimning oq-u qorasi. Nimalar qilib qo’yding. Bizni ayamasang ham o’zingni ayasang bo’lardi. El-yurt oldida yuzimizni yerga qaratding. Otang adoyi tamom bo’ldi. Hammasiga men aybdorman. Seni shunday erka, tantiq qilib o’stirdim. Otang koyiganda qulog solib seni to’g’ri yo’lga solishim kerak edi.



O’g’lim, sen mening suyanganim eding, faxrim eding. Yolg’iz farzand bo’lganining uchun ko’ngli o’ksimasin deb qattiq koyimadim. Onang erkalatganda nomiga po’pisa qildimu, ko’nglingga qaradim. Hammasiga men aybdorman. Onangning harakatlardan sezib, seni yo’lga solishim kerak edi. Vaqtida oldini olganimda sen balki qahramon bo’larding, yuzim yerga qaramasdi.



Aziz otajon, onajon. Sizlarning bag’ringizni qanchalik sog’inganimni tasavvur qilolmaysizlar. Sizlar meni hech kimdan kam bo’lmasin deb o’stirdingiz. Buning qadriga vaqtida yetmadim. Boshingizni egib qo’ydim. Hammasiga men aybdorman. Qani endi menga yana imkoniyat berilsa edi...

MUHOKAMA

*Bugungi dars sizga yoqdimi? Nima uchun?

*Said Ahmadning asari sizda qanday taassurot qoldirdi?

*Tursunboyga sizning munosabatingiz?

Uning hayotini hozirgi davr yoshlari hayoti bilan qanday o'xshash va farqli tomonlari bor deb o'ylaysiz?

Jannat xola va Ikromjon xarakteridagi milliylik nimalarda ko'rsatilgan?



VAZIFA

1. “Qochoq” asari qahramoni Tursunboyga maktub yozing.
2. Bu asar sizning hayotingizda qay darajada saboq bo‘lishii haqida yozing.

Fikrlaringiz asosida partadoshingiz yoki eng yaqin do’stingizga tavsiyalar bering.

3. “Qochoq” asarida retrospektiva* qo’llanilgan o’rinni toping.
4. Parchadagi tabiat tasvirlari berilgan o’rinlarni topib yozing.

*Badiiy asarda bayon qilinayotgan voqealardan oldin bo‘lgan voqeani eslash yoki **fleshbek** (inglizcha “flashback” - “ortga nazar”) deyiladi.

5-nazorat ishini noan'anaviy tashkil qilish (Tavsiya)

Loyiha

Guruhlarga bo'lining. Darslarda o'rganilgan Said Ahmadning "Qochoq" asari va Asqad Muxtorning "Chinor" romanidan parchani o'rgandingiz. Shular asosida Tursunboy va Akbarali obrazlarini qiyosiy tahlil qiling. Jadvalni daftaringizda to'ldiring.

Obrazlar	Tursunboy	Akbarali
Har birining o'ziga xos jihatlari		
Ikkalasining farqli tomonlari		
Ikkalasining bir-biriga o'xshash tomonlari		
Xulosa		

**Doimo yangilikka intilib
yashang, zero u hayotimizdagi
o'zgarishlarning kalitidir.**



E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!